

O'zunduksiya hodisasi.

1. GES generatorining rotori 125 ayl/min chastota bilan aylanmoqda. Necha juft qutb bo'lganda, 50 Hz chastotali o'zgaruvchan tok hosil bo'ladi? A) 5. (B) 24. C) 25. D) 48.
2. Agar o'zgaruvchan tok generatorining aylanish tezligini ikki marta kamaytirib, juft qutblar soni ikki marta orttirilsa, tokning chastotasi qanday o'zgaradi? A) 4 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi. C) 2 marta ortadi. (D) o'zgarmaydi.
3. Berilgan jumlaning mazmuniga mos ravishda gapni davom ettiring. Elektr zaniirda transformator: 1) to'g'rilagich sifatida ishlatiadi; 2) o'zgaruvchan tok chastotasini o'zgartirish uchun ishlatiladi; 3) o'zgaruvchan tok kuchlanishini o'zgartirish uchun ishlatiadi; 4) o'zgaruvchan tok kuchini o'zgartirish uchun ishlatiladi. (A) 3, 4. B) 1. C) 2. D) 2, 3.
4. Transformatorning ishlashi ... ga asoslangan. Nuqtalar o'rniga quyidagilardan to'g'risini tanlab qo'ying. A) Joul-Lens qonuni. (B) elektromagnit itiduksiya qonuni. C) Kulon qonuni. D) Ot qonuni.
5. Kuchaytiruvchi transformator qaysi chulg'amdagi simning kesimi katta bo'lishi kerak? A) ikkilamchi. (B) birlamchi. C) ikkalasiniki. D) sim kesimi yuzining ahamiyati yo'q.
6. Transformator salt ishlaganda, 1 W quvvat iste'mol qiladi. Agar transformatorga 400 W quvvat qabul qiluvchi asbob ulansa, uning FIK i 98% ga teng bo'ladi. Transformator chulg'amlarini qizdirishga necha vatt quvvat sarflanadi? A) 0. B) 7. (C) 8. D) 9.
7. Pasaytiruvchi transformatorning birlamchi chulg'ami 220 V kuchlanishli tarmoqqa ulangan. Transformatorning ikkilamchi chulg'ami uchlaridagi kuchlanish 20 V, chulg'amning qarshiligi 1 Ω , undan o'tayotgan tok kuchi 2 A bo'lsa, transformatorning transformatsiya koeffitsienti qanday? A) 12. B) 5. C) 8. (D) 10.
8. Pasaytiruvchi transformator chiqishidagi kuchlanish 30 V. Unga har biri 0,8 A tok iste'mol qiladigan 100 ta lampochka ulangan. Agar transformatorning FIK 96% bo'lsa, uning kirishidagi quvvati qanday (kW)? A) 1,5. B) 2. C) 4. (D) 2,5.
9. Elektromagnit to'lqinlar to'lqinning qaysi turiga kiradi? A) bo'ylama. B) bo'y lama va ko'ndatang. (C) ko' ndalang. D) bo'y lama ham, ko'ndalang ham emas.
10. Vakuumdagi E va B elektromagnit to'lqin vektorlari X va Y o'qlar bo'ylab yo'nalgan bo'lsa, to'lqinning tarqalish yo'nalishi qanday? A) X o'qining musbat

yo'nalishida. B) Y o'qining musbat yo'nalishida. C) Z o'qining manfiy yo'nalishida. (D) Z o'qining musbat yo'nalishida.

11. Elektromagnit to'lqinlarning tarqalish yo'nalishi qanday aniqlanadi? (A) burg'uning dastasi B) E dan B ga tomon aylantirilganda, C) burg'uning dastasi E dan soat mili harakatiga qarshi aylanganda, ... D) burg'uning dastasi B dan soat mili yo'nalishida aylanganda, ... burg'uning harakat yo'nalishi qanday bo'lsa, E va B vektorlar bilan aniqlanuvchi elektromagnit to'lqinning tarqalish yo'nalishi ham shunday bo'ladi.

12. Vakuumda elektromagnit to'lqinlarning tarqalish tezligi... A) muhitda tarqalish tezligiga teng bo'ladi. B) muhitda tarqalish tezligidan kichik bo'ladi. (C) muhitda tarqalish tezligidan katta bo'ladi. D) nolga teng, chunki vakuumda umuman tarqalmaydi.

13. Grafikda vakuumda tarqalayotgan yorug'lik to'lqinidagi elektr maydon kuchlanganligining vaqt bo'yicha o'zgarishi berilgan. Grafikdan foydalanib, to'lqin uzunligini aniqlang (m). A) $3 \cdot 10^{-7}$ B) $5 \cdot 10^{-6}$. C) $6 \cdot 10^{-10}$. (D) $6 \cdot 10^{-7}$.

14. Radiopriyomnik konturi 50 m to'lqin uzunlikka sozlangan, konturni 25 m to'lqin uzunlikka sozlash uchun g'altak induktivligini qanday o'zgartirish kerak? A) 2 marta kamaytirish. B) 4 marta orttirish. (C) 4 marta kamaytirish. D) 2 marta orttirish.

15. 1884 m to'lqin uzunligiga moslangan tebranishlar konturidagi kondensator sig'imi 500 pF bo'lsa, undagi g'altakning induktivligi qanday (mH) (A) 2. B) 20. C) 100. D) 200.